



"O'gay ona" – asaridagi Ona siymosi talqini

Boliqulova Mehribon

SamDCHTI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Ahmad Lutfiy Qozonchi badiiy olami haqida ma'lumot berilgan. Yozuvchi ijodidagi boshqa asarlari kabi mashhur va alohida mavqega ega bo'lgan "O'gay ona" asari badiiy tahlil qilingan. Asarda ona siymosi va hayotning gulgun chechaklari bo'lmish farzand tarbiyasi poetik talqini yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'gay ona, tarbiya, Qur'on, yetim, ko'z yoshlar, muhabbat, tahlil, talqin.

Turk adabiyotining zabardast vakili va juda ko'plan diniy asarlar muallifi bo'lmish Ahmad Lutfiy Qozonchi nomi bizga juda tanish. Yozuvchi va professor Ahmad Lutfiy Qozonchi – din tarixiga, diniy masalalarga, hazrat Payg'ambar (s.a.v) va sahobalar hayotlariga bag'ishlangan yigirmadan ortiq nomdagi (30 jildga yaqin) kitoblarning muallifi hisoblanadi. Bulardan tashqari yana to'rtta roman ham yozgan. Uning "Saodat asri qissalari", "Abu Bakr Siddiq r.a", "Hazrati Umar ibn Hattob r.a", "Qaynona" va mening e'tiborimdan chetda qolmagan, shu jumladan, o'ylashga, asardagi insonlar bilan birga yashashga, yig'isiga va xursandchiligiga, xayolan bo'lsada muammolariga yechim topishga uringantirgan "O'gay ona" asaridir.

Insoniyat uchun xolis va samimiy xizmat qilayotgan insonlarga bag'ishlangan bu romanda husn va ilm-u odobi benuqson bo'lgan 19 yoshli Fotima, o'zi kichik bo'lsada, dard-u g'ami belni sindiradigan darajada hayot achchiqlarini juda ko'p tortgan, ona mehri va ona shavqatini unutgan yetim Ismoil hamda "Och qolmay o'l, zahar ye, zaqqum yut" so'zi og'zidan tushmaydigan o'gay ona Sanixaxonim va Eldorbekdek hayotga yengil qaraydigan kaltabin insonlar hayoti yoritilib o'tilgan. Va shuni ta'kidlash joizki, o'sha davrdagi qizlar



tarbiyasiga, odob-axloqi, yigitlarning iymonli, e'tiqodli bo'lib kamol topishiga bir so'z bilan aytganda, kelajagiga e'tibor qaratilgan. Asar men-chun mazmunli bo'ldi. Ta'sirlanmaslikni iloji yo'q!

Asarda bosh qahramon Fotima ismli qiz. U juda go'zal va ibratli tarbiya egasi. Ham odobda, ham husnda tengsiz bo'lgan bu qiz boshqalarga na'muna bo'ladi. Umr bo'yi Odilbekning yetimlariga beminnat qaraydi o'zining farzandidek ko'radi. Ismoil chekkan azoblaridan ta'sirlangan Fotima Odilbekning sovchilarini rad etmaydi. 19 yoshli qiz ikki nafar farzandi bo'lgan erkakka o'z xohishi bilan turmush qurishga rozi bo'ladi. Bu, albatta, meni va sizni larzaga solmay qo'ymaydi. Fotima Odilbekka turmushga chiqsa yetimlariga shunday azob bermaslikni, ularni o'z farzandidek ko'rishligini, hatto ba'zi ota-onalar o'z farzandlarini ham unday tarbiya qilishmaydi! Eng chiroyli voqea esa Odilbek ularga tanbeh berib urayotgan vaqtida ham Fotima o'gay bo'la turib otasini uyaltirgani. Yo'q Fotima o'gay emas Odilbek o'gay deb o'ylab qolishingiz ham hech gap emas edi shu vaqtda. Ha, Fotima mana shunday oliyjanob edi. Shundan keyin, Fotima ham ona, ham rafiqa, ham soliha ayol sifatida hammaning mehrini qozondi. Farzandlariga diniy va dunyoviy bilimlar berdi. Hatto turmush o'rtog'iga Qur'onni o'rgatdi. Fotimaning tarbiyasiga, odobiga har qanday inson havas qilsa arziydi. Uning insoniyligini yaqqol namoyon qilgan narsa – marhuma Xayriyaxonga hurmatidir. Odilbekning ham shu sabab Fotimaga nisbatan mehri oshadi. Fotima Husaynning ta'lim va tarbiyasiga juda qattiq e'tibor beradi va uni Imom Xatib maktabida o'qitadi. Husayn ham juda ilimli, go'zal tarbiyali yigit bo'lib voyaga yetadi. Odilani Ismoilga turmushga berishadi. Ismoilning hayotida Fotimaxonimning o'rni beqiyos edi. Ismoil uning hurmati uchun ham Odilani bir umr avaylab ardoqlashga qasam ichadi. Asarni o'qish davomida Ismoilning bolaligi, azoblari, ruhiy izzatlarini, Husaynning o'rtog'i Yilmazning ham o'gay ona qo'lidagi ayanchli qismati sizni befarq qoldirmaydi. Umuman olganda, Fotima haqiqiy musulmon ayoli, ideal obraz qilib tasvirlangan. Asardan olgan eng katta xulosam – SHUKRONALIK! Ota-onalarimiz, boshimizda soyabonlarimizning borligiga shukr qilishga undaydi bu asar. Asardagi asosiy g'oya esa o'gay onalarning hammasi ham yomon emas, Fotima singarilari ham uchraydi. Ular mehr va muhabbatlari ila



dunyodagi farzand deb atalmish ulug' nematning iforini uzoq vaqtgacha zararli g'uborlardan holi tarzda taralib turishligiga hissa qo'shgan fidoiylardir.